

“Mustaqillik” MFY da Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti tadbiri

Muhtaram yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan davlat idoralarining mamlakatimiz axolisi bilan doimiy muloqatda bo'lishi, ularning muammolariga xamdard bo'lish va muammolarni bartarfa etishda mahallabay va fuqarobay ish uslublarida ishlar olib borish, aholi murojaatlarini bartaraf etishda doim yelkadosh bo'lish vazifalaridan kelib chiqib 16-iyun kuni QXM fakulteti jamoasi Mirzo Ulug'bek tumanidagi “Mustaqillik” maxallasida yoshlar muammoasi va har bir yoshning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o'zgartirish, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rinlarini munosib egallashlari bo'yicha tadbir tashkillashtirildi.



Shuningdek, mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish bo'yicha maxalla faollari bilan suxbat uyushtirildi. “Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirda mahalla faollari va yoshlari institut raxbariyatidan Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriev ishtirok etishdi. Tadbir davomida maxalla axolisi institut to'g'risida kengroq ma'lumotga ega bo'lishi uchun institutda tayyorgangan videorolik nomoyish etildi, institut tomonidan maxalla yoshlariga sovg'alar topshirildi. Tadbir yakunida institut psixologi M.Muhamedova tomonidan mahalla fuqarolari va yoshlar o'rtasida psixologik seminar trening xam o'tkazildi.

TIQXMMI matbuot xizmati